O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

2019-2020-O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING 9-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI O‘TKAZISH BO‘YICHA ONA TILI FANIDAN METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



Toshkent-2020

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-sinf o‘quvchilari yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiya va materiallarni tijoriy maqsadda ko‘paytirib tarqatish taqiqlanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari metodbirlashmalari bosqichli nazorat imtihoni materiallariga 15-20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Tuzuvchi:

G.Xolmuratova – Respublika ta’lim markazi metodisti.

Taqrizchilar:

M.Abdurasulova – Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Z.Ergasheva – Andijon viloyati Andijon shahri 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

@uzimtihon

ONA TILI
9-SINF

Ona tili fanidan o‘quvchilarning DTSda belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning elementlari qay darajada shakllanganligini, hamda fikrini mantiqiy izchillikda, ona tilining keng imkoniyatlaridan o‘rinli foydalangan holda ravon va to‘g‘ri bayon eta olish malakasi, fikr bayon etilayotgan soha bo‘yicha o‘quvchining bilimlari kengligi va chuqurligi, tuzgan matnining imloviy, uslubiy, savodlilik darajasini aniqlash maqsadida, 9-sinf bitiruvchilari ona tili fanidan yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Bayon matnlari 3 ta variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn beriladi. Bir o‘quvchi 3 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo‘yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo‘yiladi. O‘qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir marta (lozim bo‘lsa ikki marta) o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matn mavzusidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar .

Ijodiy bayon hajmi 9-sinf uchun 3,5 – 4 bet bo‘lishi mumkin. Belgilangan vaqt 2 soat (120 daqiqa) bo‘lib, 5 ballik tizimda baholanadi. Tasviriy vositalardan foydalanib bayon yozishda o‘quvchi matn mazmuniga bog‘lab, mustaqil ravishda ayrim narsa, voqea hodisalarni tasvirlaydi. Boshlab berish yo‘li bilan bayon yozishda boshlanishi berilgan matnni o‘quvchilar ijodiy davom ettirib, uni to‘liq matn shakliga keltiradilar. O‘quvchining yozgan bayoni mazmun izchilligi va lisoniy qurilishi jihatidan talab darajasida bo‘lishi bilan birga, savodli bo‘lishi kerak. Shuningdek, bayonning reja asosida yozilishiga erishilishi zarur. Aniq tuzilgan reja o‘quvchi bayonining izchil mantiqiy bo‘lishini taminlaydi.

Ijodiy bayon uchun ikkita baho (mazmuniga va savodxonligiga, 5/5 tarzida) qo‘yiladi.

Ijodiy bayon quyidagi baholash mezoni asosida baholanadi:

Baho	Mazmuni	Savodxonligi
“5”	- yozma ishning rejasi mavzu mazmunini to‘liq qamrab olgan bo‘lsa; - ish mazmuni mavzu rejasi bilan to‘liq mos kelsa; - yozma ish mazmuni tizimli, uzluksiz ravishda yoritilgan bo‘lsa; - yozma nutqning leksik boyligi, so‘zlarning o‘z o‘rnida ishlatilishi va sintaktik gap qurilishining har xilligi bilan ajralib tursa; - yozma ishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqol va statistik ma’lumotlardan o‘rinli foydalangan, hamda keltirilgan ma’lumotlar asosli bo‘lsa; - yozma ishda adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda, mavzu mazmuni hozirgi davr bilan bog‘liq umumiy xulosalangan bo‘lsa.	Matn husnixat bilan yozilib , 1ta imlo , 1ta ishoraviy xato, 1ta grammatik xatoliklar bo‘lsa, bu 1/1/1 shaklida belgilanadi.
“4”	- yozma ish rejaga mos mazmuni batafsil yoritilgan, ammo ayrim joylarida keltirilgan voqea-tasvirlarda noaniqliklar mavjud bo‘lsa; - milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hikmatli so‘z, maqollardan o‘rinli foydalangan ammo, mustaqil fikrlar bayon qilishda ketma-ketlik qisman buzilgan bo‘lsa; - yozma nutqning leksik, grammatik tuzilishini turlicha qo‘llagan bo‘lsa; - matn mazmunining qurilishi yagonaligi va ifodaliligi bilan ajralib tursa; - mavzu adabiy til me’yorlariga amal qilgan, umumiy xulosalangan bo‘lsa, ammo matn mazmunida mavzudan biroz chetga chiqishlar bo‘lsa;	Bu yozma ishda xatolar soni quyidagicha bo‘lganda: 2/2/3; 1/3/3; 0/4/3. Biroq, grammatik xatolar soni 3 tadan, imlo xatolarning umumiy soni 2 tadan oshmasligi kerak
“3”	- yozma ish aniq yozilgan, ammo matndagi 3-4 faktlarda xatoliklar bor bo‘lsa; - yozma ishda belgilangan mavzudan chetlashlar (mavzuga aloqasi bo‘lmagan ma’lumotlar) mavjud bo‘lsa; - yozilgan matnning mavzuga mosligi 70% dan kam bo‘lgan holatlarda; - matnning rejalarini yoritishda ketma-ketlik buzilsa; - yozma nutqda leksik boyligi yo‘q , gap tuzish usullari bir xil bo‘lsa; - matnning qurilishida bir xillik yo‘q, ifodali yoritilmagan bo‘lsa.	Bunda xatolar quyidagicha bo‘lganda: 0/5/7; 1/4-7/4; 2/3-6/4; 4/4/4; 3/5/4
“2”	- yozma ish mazmuni rejaga umuman to‘g‘ri kelmagan bo‘lsa; - ma’lumotlarda xatoliklar ko‘p bo‘lsa; - matn mavzuga mosligi 50% dan kam bo‘lsa;	Xatolar soni turlicha bo‘lishi mumkin: - yozma ishda ishoraviy

	- mavzuni yoritishda ketma-ketlik butunlay buzilgan, mavzu bilan reja bir-biriga to‘g‘ri kelmasa; - yozma ishning matnida qisqa bir xil tipdagi umumiy so‘zlarni o‘rinsiz qo‘llash holatlari kuzatilsa;	xatoliklar qancha bo‘lishidan qat’iy nazar, 5ta imlo xato qilganda; - 8 yoki undan ortiq ishoraviy xato, imlo xatoliklar, grammatik xatolar soni 5 ta bo‘lganda.
“1”	Yuqorida ko‘rsatilgan mezonlardan past darajada yozilgan matnga qo‘yiladi.	7 va undan ortiq grammatik xatoliklar bo‘lsa.

Eslatma:

1. Yozma ishni baholashda o‘quvchining mustaqil fikrlari, qiyoslash, tasvirlash uslubi, zamonga mos talqinlar, yozma nutq savodxonligi, gap qurilishi yagona fikrlarning o‘rinli ishlatilishi, ijodiy yondashishiga qarab bir balga oshirib qo‘yilishi mumkin.
2. Agar matnning hajmi belgilangan betdan 1,5 yoki 2 baravar ortiq bo‘lsa, yuqorida ko‘rsatilgan mezondan bittaga oshiriladi. Ammo “5” baho qo‘yiladigan yozma ish bundan mustasno. Masalan “4” baho qo‘yiladigan yozma ishda xatolar sonini har biridan (yuqorida belgilangan imlo, ishora kabi) 1 taga, “3” qo‘yiladigan yozma ishda 2 taga oshiriladi.
3. Matnning mavzusi umuman yoritib berilmagan bo‘lsa, birinchi baho tog‘ridan tog‘ri qoniqarsiz qo‘yiladi.

BAYON MATNLARI UCHUN NAMUNA

ORZUGA ERISHISH SIRI

Otasining ishi sababli Anvarning o‘qishi doim uzilib qolar edi. O‘rta maktabdaligida katta bo‘lganida kim bo‘lmoqchi va nima qilmoqchiligi haqida o‘qituvchisi insho yozib kelishini aytdi.

Anvar kechasi bilan uxlamasdan o‘ylab chiqib, kelajakda ot fermasi bo‘lishini orzu qilgani haqida yetti betlik insho yozdi. Orzusining eng kichik xususiyatigacha yozdi. Hatto, orzusidagi 200 gektarlik fermasining chizmasini ham chizdi. Binolar,og‘ilxonalar va otlar uchun yugurish joylarining qayerda bo‘lishini ham ko‘rsatdi. Bunga qo‘shib bu fermaga mos 1000 m^2 uyning chizmasini ham chizdi. Ertaga o‘qituvchisiga beradigan 7 betlik vazifasini qalbiga quloq solib yozgandi.

Ikki kundan keyin insho baholari qo‘yilgandi. Qog‘ozning ustiga qizil ruchka bilan kattakon “0” va “Darsdan keyin mening oldimga kir!” – deb yozilgan edi.

– Nega “0” oldim ? – deb so‘radi Anvar o‘qituvchisidan.

– Bu sening yoshingdagi bola uchun ushalmaydigan orzu! – dedi o‘qituvchisi.

– Puling yo‘q. Nuqul ko‘chib yuradigan oiladansan. Ot fermasi qurish uchun katta mablag‘ kerak. Oldin joy sotib olish kerak. Nasllik hayvonlar ham sotib olishing kerak. Bularning hech birini qila olmaysan-ku! – dedi va yana: – “Agar inshoingni to‘g‘irlab yozib kelsang, bahoyingni to‘g‘irlab berishim mumkin”, – deb qo‘shib qo‘ydi.

Anvar uyiga qaytdi va uzoq-uzoq o‘yladi. Dadasiga bo‘lgan voqeani aytib berdi.

– O‘g‘lim, – dedi dadasi, bu masalada qaroringni o‘zing berishing kerak. Bu sening hayoting bo‘lgani uchun juda muhim!

Anvar bir hafta o‘ylaganidan keyin inshosini hech o‘zgartirmasdan o‘qituvchisiga qaytarib olib bordi.

“Siz qo‘ygan bahoyingizni o‘zgartirmang, men esa orzularimni…” – dedi.

O‘sha bola hozir 200 gektarlik fermasining yonidagi 1000 m^2 lik uyida yashayapti. Bir necha yillar avval yozgan inshosi esa, ramkada osilib turibdi.

Topshiriqlar:

1. Matnga reja tuzing.
2. O‘z fikr-mulohazalaringizni qo‘shib bayon yozing.

MUALLIMI SONIY

Shom shahri madrasalaridan birida arabshunos olimlarning yig‘ini davom etardi. Raislik qiluvchi yosh bir yigitchaga so‘z berdi. U arab tili shevasining tovush xususiyatlari haqida ma’ruza qildi. Ma’ruza jiddiy bahsga sabab bo‘ldi. Oxirida barcha tilshunos olimlar bu yigitchani arab tili donishmandi deb tan oldilar. Bu– qomusiy bilim sohibi, mashhur faylasuf, shoir, adabiyotshunos va musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy edi.

Forobiy sakkiz yuz yetmishinchi yili Sirdaryo bo‘yida, Forob shahriga yaqin qishloqda tug‘ilgan. Forobiy Buxoro va Samarqand madrasalarida bilim oldi. Yosh yigit Forobiy ham ilm o‘rganar, ham muallimlik qilardi. Chunonchi, mashhur olim Abu Sirojiddindan astronomiya va matematikani o‘rganadi, o‘zi esa unga mantiq bo‘yicha dars beradi.

Muarrixlarning guvohlik berishicha, Forobiy butun umrini ilm o‘rganishga bag‘ishlab, arab mamlakatlaridagi madrasalarda dars berish bilan kamtarona, hayot kechirgan. Birgina Shom shahrida uning mingdan ziyod shogirdlari bo‘lgan.

Abu Nasr Forobiy qomusiy bilim sohibidir. U 130 dan ortiq asar yozganligi ma’lum. Bular orasida “Siyosat va madaniyat”, “Ruhning mohiyati haqida risola”, “Fozil shahar kishilarining axloqiy qarashlari”, “Falsafaning muqaddimasi”, “Ilmlar majmuasi” asarlari mashhurdir. Forobiy she’riyat va musiqa nazariyasiga doir kitoblar ham yozgan. Uning she’riyatga doir risolasi o‘zbek va rus tillarida nashr etilgan.

Ilm-fanda dunyoda birinchi muallim qadimgi yunon faylasufi Arastu hisoblanadi. Forobiy antik yunon faylasuflaridan Evklid, Aflotun va Arastu asarlarini tarjima qilib, sharhlab, Sharqda keng tarqalishiga katta hissa qo‘shgani va juda ko‘p falsafiy masalalarni o‘sha olimlar darajasida talqin etgani uchun “muallimi soniy” - “ikkinchi muallim” deb nom olgan.

Buyuk bobomiz Forobiyning mehnatkashligi, bilim o‘rganish borasida muntazam izlanishi, kamtarligi, oddiy mehnatkashlarga xayrixohligi bizga ibratdir.

Topshiriqlar:

1. Matnga reja tuzing.
2. O‘z fikr-mulohazalaringizni qo‘shib to‘liq bayon yozing.

HASAD

Aytishlaricha, Iskandar zamonida shunday bir dahshatli hayvon paydo bo‘libdiki, unga hech kim bas kela olmabdi.

Nihoyat, bu baloni daf qilish chorasini Arastu hakim topibdi. Uning buyrug‘i bilan juda ham katta oyna tayyorlabdilar. U oyna orasida bir-ikki kishining bekinib o‘tirishi mumkin edi. O‘sha oyna sig‘arlik juda katta arava tayyorlab,uni aravaga ko‘tarib qo‘ydilar. Arastu oyna orasida bekinib o‘tirdi . Aravani o‘sha jonivor turadigan joyga yaqinroq yerga keltirib qo‘ydilar.

Jonivor odam isini olib,arava tomonga qarab kela boshladi. Aravaga yaqin kelgan edi,ko‘zi oynaga tushdi,oynada oz suratini ko‘rib darrov yiqilib, o‘ldi. Iskandar bu ishdan juda taajjublanib, Arastudan buning hikmatini so‘radi.

– Ey, Iskandar, bu jonivor yer ostida bir necha yil yotgan badbo‘y bug‘lardan vujudga kelgandi, uning ko‘zida zaharli qotil bor edi: kimga ko‘zi tushsa, u darrov o‘lardi. Men oldiga oyna olib bordim, uning aksi oynada paydo bo‘ldi, nazari unga tushdi. Bu nazar u aks etgan vosita bilan o‘ziga qaytdi va o‘z nazarining aksi o‘ziga urib halok bo‘ldi.

Iskandar Arastuga tahsin o‘qidi. Hasadning yomonligi o‘ziga qaytadi. O‘t kuydirish uchun biror narsa topmasa, o‘zini o‘zi kuydiradi.

Topshiriqlar:

1. Matnga reja tuzing.
2. Hasad va hasadgo‘ylik haqida o‘z fikr-mulohazalaringiz va matn mazmuni asosida bayon yozing.

@uzimtihon